

## MUZEY PEDAGOGIKASI VA IJTIMOIY HAMKORLIK

*Malika Davranova**Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi hodimi*

Namangan viloyati tarixi va ma'daniyati davlat muzeyi faoliyatiga nazar tashlasak muzey jamoasi kelajagi o'zgarmas ko'rgazmalar, zerikarli ekskursiyalardan vos kechib, tashrif buyuruvchilarga manzur keladigan manzur yangi yo'naliishlarda faoliyat yuritayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Bu yo'naliishlar orasida muzey pedagogikasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu sohada ko'plab namunali ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yangi yo'naliish bolalarni tarbiyalash jarayonidagi bebaxo ko'makchi, kichkintoylarni shaxs sifatida shakillantiradi, minglab insonlar bilan birga yashashga o'rgatadi, yosh avlodni bunyodkorlikka da'vat etadi.

Bugungi kunda muzey tashqi olamga ochiq, u jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda. Tomoshabinlarni jalg qilish va qiziqtirish, shuningdek muxlislar doirasini kengaytirish, muzey jamiyat bilan o'zaro aloqalariga ta'sir etuvchi muhum omil hisoblanadi.

Shaxsni shakillantiishga yo'naltirilgan muzey pedagogikasi muzey ijtimoiy – madaniy faoliyatining istiqbolidagi yo'naliishi bo'lib, muzey faoliyatining barcha turlarini anglab yetishga imkon yaratadi va bu bilan uning ma'rifiy ta'sir darajasini oshiradi.

Muzey ma'rifiy faoliyatining an'anaviy shakillari ko'pincha tomoshabinlarning bilimga bo'lgan chanqog'ini qondirmaydi, chunki ularning ko'pi manan eskirgan. Muzey va boshqa ijtimoiy sohalarning birgalikdagi harakati ko'chma ko'rgazmalar, ma'ruza, ekskursiya va boshqa loyihalarni amalga oshirishga asoslanadi.

Muzeysiz bu faoliyat noizchil va beqaror hususiyatiga ega bo'lar edi. Muzeyga ijtimoiy institute sifatida qaramoqda. Shuningdek, insonlarni bilimini oshirish vatanga muhabbat, tarix va madaniyatga hurmat tuyg'ularini uyg'otish orqali, fuqorolik jamiyat shakillantirushda muhum o'rinn tutadi. Muzey odamlarning madaniy merosini saqlash borasidagi faoliyatini tashkillashtiradi va uyg'unlashtiradi. Jamoatchilik ongi va ijtimoiy hotirani shakillantirishi hamda yuksalishda ishtirok etadi. Muzeysiz bu faoliyat noizchil va beqaror hususiyatiga ega bo'lar edi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston muzeylari oldiga o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqish vasifasini qo'ydilar. Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi amaliyotda o'nlab madaniy- talimiy va ijtimoiy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Muzey o'z dasturlari bilan yoshlarni jalg etmoqda. Mashg'ulotlar, master klaslar va san'atning ma'lum yo'nalisahlari bo'yicha o'tkaziladigan ochiq darslar iste'dodli o'quvchilarga yordam beruvchi samarali uslublardan hisoblanadi. Ishtirikchilar viloyatimizning yetakchi san'at va fan arboblaridan saboq olish

imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular orasida musiqa, teatr, rassomlik oliv o'quv yurtlarining taniqli professor, fan nomzodi, halq ustasi va mohir pedagoglar bor. Madaniyat va san'at kolleji, dizayn va qurilish kolleji, Namangan davlat universiteti talabalari muzeyga kelib amaliyot darslarini o'tishadi. Taniqli, unvonli shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkaziladi, savol-javob, baxs-munozaralarda faol qatnashadilar. Bunday tadbirlar ularning jamiyatga moslashuvida katta yordam beradi, sabr-toqat va mexr-shavqat fazilatlarni tarbiyalaydi. Muzey va maxallaning nafaqat ular, keksa shaxarlarning bo'sh vaqtлari samarali o'tishiga yo'naltirilgan ijtimoiy hamkorlikni kelajagi porloq.

Muzeyning ilmiy, madaniy, ta'lim muossasalari bilan hamkorlik o'zaro aloqada faoliyat yuritish, turli tadbirlar o'tkazish, tashrifchilar bilan ilmiy ommaviy ishlarni olib borish kabi ishlar oylik va yillik rejalgarda kiriitilib amalga oshirilmoqda.

Muzeyning kelajagi haqidagi haqida fikrlar ekanmiz ikki narsa hisobga olishadi. Bular madaniy merosi asrab avaylash va ta'kim – tarbiya vazifalaridir.

Bugungi dorilamon kunlarimizda axborot oqimi shiddatli tus olib, turli habarlar soni izchil ortib bormoqda, oliv o'quv yurtlari talabalarida nafaqat bilm balki, malaka va ko'nikma ham bo'lishi zarur. Shuning uchun talaba pedagog ta'sir etadigan yangi shakl va uslublar, shuningdek muzey hamkorlikni yo'lga qo'yish asosida ish olib boryapmiz. Chunki yoshlarda fidokorlik tuyg'ularini, fuqorolik pozitsiyasini shakillantirish muzeyning mihum vazifalaridan biri ekanligi bizni yanada ko'proq izlanishga mehnat qilishga undaydi.

### Foydalilanigan adabiyotlat:

1. Moziy saboqxonasi zakovat nashiriyoti uyi mchj
2. Tamaddum silsilasi pres nshiriyoti
3. Ziyo internet sayti